

Shakirova Charosxon Turg'unovna,
Andijon davlat universiteti "Tasviriy va amaliy
san'at" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari
nomzodi

O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASIDA AXLOQIY ME'YORLARNING O'RNI: ADOLAT, ALTRUIZM, ISHONCH VA HAMKORLIK KONTEKSTIDA TAVSIF

UO'K: 371.134

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_7_3](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_7_3)

SHAKIROVA CH.T. O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASIDA AXLOQIY ME'YORLARNING O'RNI: ADOLAT, ALTRUIZM, ISHONCH VA HAMKORLIK KONTEKSTIDA TAVSIF

Maqolada o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida axloqiy me'yorlarning ahamiyati tahlil qilingan. O'qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy qadriyatlarga rioya qilish – pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri ekanligi asoslab berilgan. O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda axloqiy me'yorlarning – adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik – tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasbiy kompetensiya, axloqiy me'yorlar, adolat, altruizm, ishonch, hamkorlik, pedagogik etika.

ШАКИРОВА Ч.Т. МЕСТО НРАВСТВЕННЫХ СТАНДАРТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ: ОПИСАНИЕ В КОНТЕКСТЕ СПРАВЕДЛИВОСТИ, АЛТРУИЗМА, ДОВЕРИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВА

В статье анализируется значение нравственных норм как одного из компонентов профессиональной компетентности педагога. Обосновано, что соблюдение нравственных ценностей в профессиональной деятельности педагога является одним из основных факторов обеспечения эффективности педагогического процесса. Анализируется роль нравственных норм — справедливости, альтруизма, доверия, сотрудничества — в формировании профессиональной компетентности педагога.

Ключевые слова и понятия: профессиональная компетенция, нравственные нормы, справедливость, альтруизм, доверие, сотрудничество, педагогическая этика.

SHAKIROVA CH.T. THE PLACE OF ETHICAL STANDARDS IN TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE: DESCRIPTION IN THE CONTEXT OF JUSTICE, ALTRUISM, TRUST AND COOPERATION

The article analyzes the importance of ethical standards as one of the components of a teacher's professional competence. It is substantiated that adherence to ethical values in a teacher's professional activity is one of the main factors ensuring the effectiveness of the pedagogical process. The role of ethical standards - justice, altruism, trust and cooperation - in the formation of a teacher's professional competence is analyzed.

Key words and concepts: professional competence, ethical standards, justice, altruism, trust, cooperation, pedagogical ethics.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlari o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlarning muhimligini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 28-moddasida pedagog xodimlarning asosiy majburiyatlari sanab o'tilgan bo'lib, ularda axloqiy norma-larga amal qilish, kasbiy faoliyatda halollik va odob-axloqni saqlash majburiyati ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risidagi"gi Qonunida, pedagog-xodimlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Ushbu qonunlarda o'qituvchining odil bo'lishi, talabalar bilan do'stona va ishonchli munosabat o'rnatishi, o'zining shaxsiy manfaatlarini o'quv jarayonidan ustun qo'ymasligi kabi axloqiy tamoyillar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida nomli strategik hujjatda ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi shaxsiga alohida e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Milliy malaka ramkasi (MMR) doirasida o'qituvchining kasbiy malakasi bilan birga uning etika va professional axloqqa rioya qilishi ham asosiy mezonlardan biri sifatida belgilangan. Bu o'qituvchining nafaqat bilim darajasi, balki shaxsiy fazilatlari orqali baholanishini ko'rsatadi. O'qituvchi kasbi to'g'risida fikr yuritir ekanmiz, eng avvalo unga nafaqat o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish (intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, ma'lum bilimlarni qo'yish), balki yangi avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklanganligini e'tirof etmay bo'lmaydi. Shuning uchun ham zamonaviy o'qituvchi kasbiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi uning ma'naviy-axloqiy madaniyati va axloqidir. V.A.Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, o'qituvchi tarbiyaning eng nozik quroli - axloq,

axloq fanini o'zlashtirgandan keyingina pedagog bo'ladi¹.

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishdan iborat. Globallashuv, raqamlashtirish, ijtimoiy axborot vositalarining ta'siri kuchayib borayotgan bugungi kunda o'qituvchining faqat bilimdonligi emas, balki uning insoniy fazilatlari, axloqiy qadriyatlarga sadoqati, odil va halol shaxs bo'lishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. So'nggi yillarda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi masalasi xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda axloqiy me'yorlarning, xususan adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik kabi qadriyatlarning o'rni turli tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilinmoqda. UNESCO (2019) hisobotida o'qituvchi kasbiy etikasining global standartlari va ahamiyati yoritilgan bo'lib, pedagogik fazilatlar sifatida ishonchlik, adolatli baholash va talabaga nisbatan hurmat alohida urg'u bilan tilga olinadi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishdagi izlanishlar kuchayib, pedagogning nafaqat bilimdonligi, balki insoniy fazilatlari orqali baholanishi zarurligi ta'kidlanmoqda. Milliy malaka ramkasi doirasida o'qituvchining axloqiy va kasbiy etikasiga rioya qilishi professional kompetensiyaning asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Jumayeva N. (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik etikaning talaba ishonchiga va ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'siri ilmiy asosda ko'rsatib berilgan². Xalqaro miqyosda esa pedagogik fidoyilik (altruizm) va o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim uslublari o'quvchilarni faollashtirishda samarali yo'nalishlardan biri sifatida baholanmoqda. Bu holatlar zamonaviy o'qituvchining faqatgina metodik bilimlar emas, balki yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lishini ham talab etishini tasdiqlaydi.

¹ Сухомлинський В.О. Як виховати справжню людину. Другий Том. – Київ: "Радянська школа", 1976, 670 с.

² Jumayeva N. Ishonch va pedagogik etika masalalari // O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, 2019. № 4, 55–60-betlar.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasi tarkibida axloqiy me'yorlarning – xususan, adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik kabi qadriyatlarning integratsiyalashgan holda nazariy va amaliy asosda tahlili berilgan. Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda axloqiy me'yorlarning o'qituvchining professional muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida qaralishi, shuningdek, bu tamoyillarning o'zaro bog'liqligi va ularning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridagi roli kontekstual yondashuv asosida yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda ko'proq individual axloqiy fazilatlar alohida ko'rilgan bo'lsa, ushbu tadqiqotda ular o'zaro kompleks tarzda o'rganilgan va o'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga integratsiyalashuvi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, maqolada o'qituvchining axloqiy kompetensiyasi milliy qonunchilik va strategik hujjatlar asosida tahlil qilinib, ularning pedagogik etika bilan uzviy bog'liqligi yangicha yondashuv asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida axloqiy me'yorlarning – adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik tamoyillarining pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini nazariy va amaliy asosda tahlil qilish hamda ularning o'qituvchining professional muvaffaqiyati va ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot orqali axloqiy kompetensiyaning kasbiy kompetensiyadagi o'rnini ochib berish, bu me'yorlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unligini asoslab berish ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning obyekti o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan axloqiy me'yorlar va ularning kasbiy kompetensiya tarkibidagi ifodalanish holatlaridir. Mazkur tadqiqot ishi doirasida 2023/2024-o'quv yilida Andijon davlat universitetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 4-bosqichda tahsil olgan 56 nafar hamda Andijon davlat pedagogika institutining 2-bosqich 67 nafar bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqotda o'rganilayotgan masalaning nazariy asoslarini yoritish maqsadida nazariy tahlil usuli qo'llanilib, pedagogika, psixologiya va axlo-

qshunoslik sohalaridagi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Solishtirma tahlil yordamida turli mualliflarning axloqiy me'yorlarga doir yondashuvlari qiyoslandi. Shuningdek, empirik kuzatuv orqali o'qituvchilarning amaliy faoliyatida axloqiy me'yorlarga amal qilish holatlari o'rganildi. Tahlil va umumlashtirish usuli esa axloqiy qadriyatlarning kasbiy kompetensiyadagi rolini ilmiy asoslashda qo'llanildi.

Pedagogik jarayonda axloqiy me'yorlarning o'zni beqiyosdir. O'qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi tarbiyachi hamdir. U qanday muloqot qiladi, qanday so'z ishlatadi, muammolarga qanday munosabat bildiradi – bularning barchasi o'quvchi ongiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida axloqiy me'yorlar va pedagogik etika alohida e'tiborni talab qiladi.

Asosiy qism.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat o'z fanini puxta bilish, balki pedagogik madaniyat, kasbiy etika, axloqiy mas'uliyat ham talab etiladi. Kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida axloqiy me'yorlar o'qituvchining jamiyatdagi obro'sini belgilab beradi. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat puxta bilim va metodik mahorat, balki yuqori darajadagi axloqiy fazilatlarni ham talab qiladi. Ayniqsa, kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida axloqiy me'yorlar – adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik – o'qituvchi faoliyatining barqarorligini va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimiga bo'lgan yondashuvlar tubdan o'zgarib, o'qituvchi faoliyatiga nisbatan nafaqat professional, balki axloqiy mezonlar asosida ham talablar kuchaymoqda. O'qituvchi shaxsiyati endi faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarga targ'ibotchisi sifatida ham ko'rilmogda. Shuningdek, yosh avlodning tarbiyasi va uning jamiyatdagi ijtimoiylashuv jarayoni bevosita o'qituvchining kasbiy va axloqiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib bormogda. Bu holatda kasbiy kompetensiya tushunchasi faqat mutaxassislik va metodik ko'nikmalar bilan emas, balki axloqiy fazilatlar – xususan, adolat, altruizm, ishonch va

hamkorlik kabi qadriyatlar bilan ham chambar-chas bog'liq ekani ayon bo'ladi.

O'qituvchining o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishida o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda uning shaxsiy fazilatlari ham katta rol o'ynaydi. Bu yerda axloqiy komponent o'qituvchi ega bo'lgan ko'nikmalar, xususiyatlar va qadriyatlarning ikkala sohasiga ta'sir qiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi pedagogik jarayonning axloqiy tomonining ko'p qirraliligi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda u o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda va zamonaviy ijtimoiy va madaniy voqe'liklar doimiy dinamikada bo'lib, bu modellarga ta'sir qiladi. Keling, o'qituvchi kasbida axloq qanday rol o'ynashini va nima uchun bu uning fe'l-atvori va shaxsiyati bilan, tayyorgarlik va o'qitish jarayonida, shuningdek, bevosita o'z faoliyatida rivojlantirishi mumkin bo'lgan malaka va kasbiy mahoratga bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz. Buning uchun biz "axloq" va "o'qituvchining kasbiy etikasi" tushunchalarini kengaytiramiz.

Etika – bu shaxs yoki jamiyatning urf-odat-lari, axloqiy qoidalar bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan va ularni belgilab beradigan falsafiy fan hisoblanadi. U "to'g'ri" va "noto'g'ri", "yaxshi" va "yomon" kabi tushunchalarni o'rganadi hamda tahlil qiladi. Etikaga oid asosiy tushunchalar – fazilat va nuqson, yaxshilik va yomonlik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayot mazmuni va boshqa shu kabi kategoriyalardan iboratdir.

Etika axloqni o'rganish bilan bir qatorda, ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan insoniy muloqot tamoyillarini ham belgilaydi. Dastlab, bu so'zning ma'nosi birgalikda yashash natijasida hosil bo'lgan qoidalar, jamiyatni birlashtiruvchi, individualizm va tajovuzkorlikni yengishga yordam beradigan normalar edi. Jamiyat taraqqiy etgan sari bu ma'no vijdon, yaxshilik va yomonlik, hamdardlik, do'stlik, hayot mazmuni, fidoyilik va hokazolarni o'rganish bilan to'ldiriladi. Etika tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar – rahm-shafqat, adolat, do'stlik, hamjihatlik va boshqalar ijtimoiy institutlar va munosabatlarning axloqiy rivojlanishiga rahbarlik qiladi. Ushbu tushunchalar insonning shaxsiyatiga xos bo'lgan, uning hayoti davomida, kasbiy mahorat va qobiliyatlardan alohida, muloqot, ta'lim, madaniyat, din va muloqotning umuminsoniy

tamoyillari bilan o'zaro munosabati jarayonida shakllanadigan xususiyatlarni anglatadi.

O'qituvchining kasbiy etikasi - bu o'qituvchi faoliyatining axloqiy tomonlarini va o'qituvchilik faoliyati bilan belgilanadigan munosabatlarni ta'minlaydigan axloqiy va xulq-atvor standartlari to'plami. Bundan tashqari, pedagogik etikani pedagogik faoliyatda axloqning namoyon bo'lishining kelib chiqishi va mohiyatini, tuzilishi, vazifalari va xususiyatlarini, shuningdek, o'qituvchining kasbiy axloqini o'rganuvchi fan sifatida ham tavsiflash mumkin.

Pedagogik etika nazariy va amaliy funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ularda qadriyatga yo'naltirilgan, kognitiv, tarbiyaviy va boshqa ko'plab vazifalar kirsa, o'qituvchining kasbiy etikasining asosiy kategoriyalariga pedagogik burch, erkinlik va mas'uliyat, adolat kiradi. Pedagogik axloqning rivojlanishi o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan o'zaro munosabatlarining tabiatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va axloqiy fazilatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Pedagogik axloq o'qituvchi ega bo'lgan bilim bilan teng qiymatga ega. U nafaqat nimani o'rgatishi, balki qanday o'rgatishi, o'quvchilar bilan qanday muloqot qilishi, intizomiy jazo choralarni qanday qo'llashi, sinfda, shuningdek, darsdan tashqarida paydo bo'ladigan turli muammolarni qanday rag'batlantirishi va hal qilishi ham muhimdir. O'qituvchining amaliy faoliyati har doim ham pedagogik amaliyotning murakkabligi va qarama-qarshiliklari bilan bog'liq bo'lgan kasbiy etika normalariga mos kelmaydi, shuning uchun pedagogik axloqning muhim vazifalaridan biri o'qituvchining axloqiy ongining holatini o'rganish va tuzatishdir.

Pedagogik axloqning yana bir muhim jihati – bu ta'lim tashkilotining ijtimoiy institut sifatidagi axloqiy ko'rinishi bo'lib, u nafaqat bilim uzatish funksiyasini bajaradi, balki o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash, ularning ongiga ezgulik, adolat, mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdirish vazifasini ham bajaradi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, axborot resurslarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash metodikalarini takomillashtirish, shuningdek, o'qituvchi va

o'quvchilarning jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday sharoitda har bir pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lish va uni muntazam ravishda rivojlantirib borish talab etiladi. Shu o'rinda quyidagi savollar dolzarb ahamiyat kasb etadi: kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik qanday fazilatlarni o'z ichiga oladi? Pedagog qanday kompetentlik ko'nikmalarini o'zida mujassam etishi lozim?

Atamaviy jihatdan olib qaralganda, "kompetentlik" (inglizcha "competence" – "qobiliyat") degani – faoliyat jarayonida nazariy bilimlardan unumli foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va salohiyatni amalda ko'rsata olishni anglatadi. Kompetentlik tushunchasi ta'lim jarayoniga, avvalo, psixologik tadqiqotlar orqali kirib kelgan pedagogik kategoriya sifatida qoraladi. Psixologik nuqtai nazardan, kompetentlik – bu mutaxassisning nostandart, kutilmagan holatlarda qanday harakat qilishini, muloqotga kirishish tarzini, muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatini, murakkab va o'zgaruvchan jarayonlarga moslashish va ular bo'yicha harakat strategiyasini ishlab chiqish layoqatini bildiradi. Shu asosda kasbiy kompetentlik quyidagicha talqin etiladi: bu – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni to'liq va sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni amaliyotda samarali qo'llay olish layoqati.

Kasbiy kompetentlik faqat alohida bilim va ko'nikmalarni egallash bilan chegaralanmay, balki mustaqil yo'nalishlar bo'yicha integratsiyalashgan bilimlar va xatti-harakatlarni o'zlashtirishni ham nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" atamasi mutaxassislik doirasidagi bilimlarni doimiy boyitib borish, zamonaviy axborotlarni egallash, ijtimoiy ehtiyojlarni chuqur anglash, kerakli ma'lumotlarni topish, ularni tahlil qilish va kasbiy faoliyatda samarali tarzda tatbiq etishni ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlik murakkab holatlar, noaniq topshiriqlar, qarama-qarshi ma'lumotlarga asoslangan sharoitlarda to'g'ri harakat rejasini ishlab chiqish layoqati orqali namoyon bo'ladi. Kompetensiyaga ega o'qituvchi o'z kasbiy bilimlarini muntazam ravishda boyitib boradi, yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi, zamon talablarini chuqur tushunadi hamda ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanadi. Kasbiy kompetensiya

o'z ichiga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki o'qituvchining axloqiy fazilatlarni ham oladi. Xususan, axloqiy kompetensiya – bu pedagogik etika, kasbiy javobgarlik va odo-axloq qoidalariga rioya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u pedagogning faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan axloqiy kompetensiya o'qituvchining kasbiy fazilatlari, shaxsiy namuna ko'rsatish qobiliyati va tarbiyaviy samaradorligini belgilovchi omildir. O'qituvchi kasbiy faoliyatida axloqiy kompetensiya ega bo'lishi uchun axloqiy me'yorlarlarining tutgan o'rni beqiyos. O'qituvchi har bir harakati orqali o'quvchilarga nafaqat bilim, balki insoniy qadriyatlarni ham o'rgatadi. Shu bois pedagogik axloq faqat kasbiy talablardan iborat emas, balki ma'naviy majburiyatdir.

Ta'lim sifatining asosi – bu malakali va axloqan yetuk o'qituvchidir. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat bilim, ko'nikma va metodik tayyorgarlik, balki chuqur axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo'lishi zarur. Ayniqsa, adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik – pedagogik faoliyatda eng dolzarb axloqiy mezonlardandir. O'zbekiston Respublikasi ta'lim qonunchiligida ham bu me'yorlar pedagogik etikaning ajralmas qismi sifatida belgilanadi.

O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida axloqiy me'yorlarning o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik kabi tamoyillarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ochib berishdir.

Nazariy tahlil – pedagogik, psixologik va falsafiy manbalarni o'rganish asosida asosiy tushunchalarni aniqlash;

Solishtirma tahlil – turli mualliflarning yondashuvlarini solishtirish;

Empirik kuzatuv – o'qituvchilarning amaliy faoliyatidagi axloqiy me'yorlarga rioya qilish holatlarini o'rganish;

Tahlil va umumshtirish – axloqiy qadriyatlarning kasbiy kompetensiyadagi rolini izohlash.

Axloqiy me'yorlar inson va jamiyatning uyg'un yashashini ta'minlashga qaratilgan, ko'p asrlik insoniyat tajribasining mahsulidir. Insoniyat tarixan o'zaro hamjihatlikda yashashga intilib, bu yo'nalishni eng muhim maqsadlardan biri sifatida belgilab kelgan. Axloq me'yorlari – insonning yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi

farqlarni aniqlash, ezgulik mohiyatini tushunishga bo'lgan intilishlari asosida shakllangan. Ular axloqiy qadriyatlar va me'yorlardan tashkil topgan. Axloqning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu – ideallar bo'lib, ular shaxs o'zida mujassam etishni istagan axloqiy sifat va me'yorlar tarzida namoyon bo'ladi. Me'yor – bu ma'lum turdagi xatti-harakat, doimiy takrorlanadigan vaziyatlar, talab va standartlar, ijtimoiy qarashlar, estetik did, qoidalar va urf-odatlar shaklida yuzaga chiqadigan namunadir. Me'yorlar o'zida ajdodlar tomonidan yaratilgan va ijobiy baholangan tajriba asosini mujassam etadi, chunki ular orqali xatti-harakatlarning avlodlar davomida sinalgan maqsadga muvofiqligi ifodalanadi. Ushbu ta'riflar asosida xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy axloqiy me'yorlar – shaxsning jamiyatga moslashuvi davomida namoyon bo'ladigan, xatti-harakatda ideal obraz sifatida aks etuvchi ko'rsatkichdir.

Axloqiy me'yorlar – bu jamiyat tomonidan qabul qilingan va kutiladigan xatti-harakat qoidalar bo'lib, ulardan kasbiy faoliyatda shakllanadigan adolat, altruizm, ishonch, hamkorlik kabi qadriyatlarni ko'rib chiqamiz.

Adolat – o'qituvchilik faoliyatining asosiy mezon. Adolat – bu o'qituvchining barcha talabalariga nisbatan teng munosabatda bo'lishi, baholashda shaffoflikni ta'minlashi va shaxsiy simpatiyani professional mezonlardan ustun qo'ymasligidir. Ta'lim jarayonida adolatni saqlash nafaqat talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki uning ichki ishonchini ham mustahkamlaydi. Adolatli o'qituvchi sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, bu esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Adolat – qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi va ularni baholovchi falsafiy-me'yoriy tushunchadir. Adolat jamiyatni tartibga solishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib, unda axloqiy va huquqiy talablar o'zaro uyg'unlashgan holda mujassam topadi. Uni axloqiy sohada miqdoriy mezon sifatida talqin etish mumkin: adolat – talab bilan taqdirni o'lchab turuvchi ruhiy tarozidir. U mavjud bo'lgan joyda fayz, haqiqat va baraka qaror topadi. Adolat insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni tartibga solib, ijtimoiy munosabatlarda talab va taqdirlash mezonini belgilovchi baholash kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli u axloq va huquqni o'zaro bog'lovchi vosita sifatida ham

e'tirof etiladi. Axloq tushunchasi esa huquq normalarining ijtimoiy-axloqiy asosi bo'lib maydonga chiqadi. Demakki, adolat tushunchasi huquqiy ong shakllanishidan ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lib, huquqiy munosabatlar sohasida ham alohida ahamiyatga egadir. Axloqshunoslik fanida asosiy baholovchi mezonlardan biri bo'lgan adolat tushunchasi – turli iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jarayonlarni xolis, haqqoniy va insonparvar nuqtai nazardan baholash imkonini beruvchi umuminsoniy axloqiy mezonlarni o'zida mujassamlashtiradi..

Altruizm (lotincha "alter" – "boshqa", "o'zga") – bu insonning fidoyilik, ma'naviy kamsuqumlik va insonparvarlikka asoslangan xatti-harakatlarini ifodalovchi tushunchadir. Ushbu atamani ilk bor XIX asrda fransuz faylasufi Ogust Kont ilmiy muomalaga kiritgan¹. Biroq Sharq falsafasida bu tushuncha "jo'mardlik" nomi bilan ancha ilgari paydo bo'lgan. Xususan, o'rta asrlardagi musulmon Sharqida jo'mardlik tasavvufiy tariqatlar orqali insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi falsafiy tizim sifatida shakllangan bo'lib, bu haqida Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnoma-i Sultoni" asarida keng ta'rif berib o'tgan². Altruizm insonning o'z yaqinlariga mehr-shafqat, baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqib, beminnat yordam ko'rsatish, xayriya va g'amxo'rlik qilishdek insoniy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Altruistik shaxs o'z manfaatlaridan ko'ra boshqalar manfaatini ustun qo'yib yashaydi. Bu faqat oddiy yordam emas, balki ehtiyojmandlik, befarqlik va loqaydlikka qarshi yo'naltirilgan onglik va faol ijtimoiy harakatdir. Altruizm xudbinlikning aksi sifatida pragmatizm g'oyalariga qarshi ma'naviy immunitetni kuchaytiruvchi, sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tariximizda Pahlavon Mahmud altruizm g'oyasining tirik timsoli sifatida e'tirof etiladi. Altruizm mohiyat e'tibori bilan boshqalarning manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishga asoslangan tamoyildir. Shu ma'noda o'qituvchilik – altruistik kasb hisoblanadi. Chunki haqiqiy pedagog o'zining vaqtini, bilimini va kuch-g'ayratini talabalar manfaatiga yo'naltiradi.

¹ <https://www.britannica.com/topic/altruism-ethics>

² Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoni yoxud juvonmardlik tariqati. – Toshkent: "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi" nashriyoti, 1994. – B.18.

Har bir talabaning muvaffaqiyati o'qituvchi uchun shaxsiy yutuq sifatida baholanadi. Altruistik tamoyillar asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi shogirdlarida ham mehr-oqibat, rahm-shafqat, ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Altruizm - pedagogik fidoyilik. Altruizm – bu ichki motivatsiya bo'lsa, fidoyilik – uning tashqi amaliy ifodasidir. Pedagog altruistik bo'lish orqali o'z ishiga mehr bilan yondashadi, shaxsiy manfaatlardan ko'ra ta'lim sifatini ustun qo'yadi. Bu jihatlari o'qituvchining obro'sini oshiradi, talabalar bilan ishonchli va samarali munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Altruizm va pedagogik fidoyilik ta'lim jarayonida muhim axloqiy va kasbiy qadriyatlar qatoriga kiradi. Asosiy belgilar:

- boshqalarga yordam berishga tayyorlik;
- o'z manfaatini chetga surish;
- mehr-shafqat va g'amxo'rlik;
- fidokorlik, hamdardlik;
- ijtimoiy mas'uliyatni his qilish.

Pedagogik fidoyilik – bu o'qituvchining o'z kasbiga, talabalarga, ta'lim-tarbiya jarayoniga chin yurakdan sadoqat bilan yondashuvi, o'zining shaxsiy vaqtini, kuchini, ba'zan esa farovonligini ta'lim sifati uchun baxshida qilishi. Bu altruizmnining amaliy ifodasi bo'lib, kasbiy etikaga asoslanadi va quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

- talabalar muvaffaqiyati uchun doimiy izlanishda bo'lish;
- o'quvchilarning muammolariga befarq bo'lmaslik;
- o'z vaqtini, bilimini, tajribasini ayamasklik;
- ta'limdagi yangiliklarni izchil o'rganish va tatbiq etish.

Pedagogik fidoyilikning ahamiyati quyidagicha:

1. Talabalarga ijobiy namuna bo'ladi.
2. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.
3. O'quvchilarda ham ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi.
4. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.
5. Innovatsion va zamonaviy yondashuvlarga ochiqlikni kuchaytiradi.

Pedagogik fidoyilik – bu shunchaki kasbiy majburiyat emas, balki ijtimoiy axloqiy qarashlarning mahsuli bo'lgan ichki ehtiyojdir. Altruistik

yondashuvga ega bo'lgan pedagog nafaqat bilim beradi, balki tarbiya ham qiladi. Bugungi ta'lim tizimi ana shunday fidoyi, yangilikka intiluvchi, mehribon o'qituvchilarga ehtiyoj sezmoqda.

Ishonch – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ruhiy ko'prik. Ishonch – bu har qanday sog'lom insoniy munosabatlarning negizidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ishonch ta'lim samaradorligining kalitidir. O'qituvchi o'z harakati, so'zi, va'dasi orqali ishonchga sazovor bo'lishi lozim. Talaba o'qituvchisiga ishonsa, u undan ko'proq bilim olishga intiladi, ochiq fikr bildiradi, o'rganishga tayyor bo'ladi. Shu bois, o'qituvchining doimiy halolligi, barqarorligi va sadoqati ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Ta'lim tizimi doimo yangilanib borayotgan bugungi davrda o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki axloqiy yetuklik, ma'naviy barqarorlik va o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Ayniqsa, talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ishonch axloqiy me'yor sifatida alohida o'rin tutadi¹.

Ishonch – bu shaxslararo munosabatlarning asosi bo'lib, o'zaro hurmat, samimiylik, vijdoniylik va sadoqat kabi fazilatlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida ishonch ikki tomonlama xususiyatga ega: o'qituvchining talabaga, talabadan esa o'qituvchiga bo'lgan ishonchi. Mazkur o'zaro ishonch ilmiy-ta'limiy munosabatlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi².

O'qituvchining talaba oldidagi ishonchli shaxs sifatidagi o'rni quyidagi axloqiy mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- adolat va xolislik – baholash, muloqot va intizomda tarafkashlikdan xoli yondashuvni ta'minlash;
- mas'uliyatli munosabat – har bir pedagogik faoliyatga ongli va puxta tayyorgarlik bilan yondashish;

¹ O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentabrdagi ORQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - <https://lex.uz/acts/5013007>

² O'zbekiston Respublikasi 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. - <https://lex.uz/docs/-6786401>

- so'z va amalda birlik – bergan va'dalarni bajarish, shaxsiy namunaviy xatti-harakatlar orqali ta'sir o'tkazish¹;

- sir saqlash va e'tiborli bo'lish – talabanning shaxsiy hayoti va fikrlariga hurmat bilan yondashish;

- samimiylilik va ochiqlik – muloqotda sun'iylikdan holi, chin dildan yondashuv.

Ushbu fazilatlar o'qituvchining axloqiy madaniyatini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardir. O'qituvchining ishonchli shaxs sifatida namoyon bo'lishi, avvalo, talabanning unga bo'lgan hurmatini mustahkamlaydi, bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va o'z ustida ishlashga undaydi².

Shuningdek, ishonch o'qituvchi va talabalar o'rtasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu muhitda talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, mustaqil qarorlar qabul qilishlari va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari mumkin bo'ladi. Ayniqsa, muhandislik grafikasi kabi amaliy, innovatsion fikrlashni talab etuvchi fanlarda bu holat yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi³.

Hamkorlik – jamoaviy o'rganish va o'qitishda birgalikda harakat. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar individual yondashuv bilan bir qatorda jamoaviy faoliyatga ham katta e'tibor qaratadi. O'qituvchining talaba bilan, ota-onalar bilan, kasbdoshlar bilan hamkorlikka tayyorligi – uning kasbiy kompetensiyasining muhim jihatidir. Hamkorlik o'zaro tushunishni, empatiyani va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni ta'minlaydi. Bunday hamkorlik muhiti bilim almashinuvi, innovatsion metodlarni tatbiq etish va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi.

Hamkorlik – bu o'qituvchi va talabalar, yoki talabalar o'zaro bir guruhda ma'lum bir maqsadga erishish uchun birgalikda faoliyat

yuritishidir. Bu jarayonda bilimlar almashiladi, g'oyalar muhokama qilinadi, muammolar birgalikda hal etiladi.

Hamkorlikda talabalar kichik guruhlarda ishlaydi, har bir a'zoning hissasi muhim hisoblanadi. Jamoaviy o'rganish o'zaro mas'uliyatni, ijtimoiy ko'nikmalarni va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Hamkorlik muhiti bilim almashinuvi, innovatsion metodlarni tatbiq etish qarorlar qaror qabul qilish, rejalashtirish, topshiriqlarni taqsimlash, va natijalarni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Harakatlar muvofiqlashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Hamkorlik afzalliklari:

- tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi;
- mas'uliyat hissi ortadi;
- kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi.

Murakkab muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Muhandislik grafikasi darslarida hamkorlikda ishlash, masalan, chizmalar tayyorlash, CAD dasturlarida⁴ loyihalar yaratish, o'zaro tahlil va fikr almashish orqali samarali bo'ladi. Aksincha, axloqiy tamoyillarga amal qilinmagan taqdirda, samarali hamkorlik va ta'sirchan ta'limiy muhit shakllanmaydi. Shu bois, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini baholashda faqat texnik yoki metodik tayyorgarligini emas, balki uning axloqiy saviyasi va hamkorlik madaniyatini ham inobatga olish zarur. Bular, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Adolat o'qituvchining baholash, munosabat va talab qo'yishdagi xolisligi bilan namoyon bo'ladi. Talabalar o'rtasida tenglikni ta'minlash, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish aynan adolatga asoslanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'z faoliyatida adolatga tayanadigan o'qituvchilarning darslarida talabalar ishtiroki 25–30% yuqori bo'lishi kuzatilgan (1-жадвал).

Ushbu ma'lumotlar 5 nafar o'qituvchi va 123 nafar talaba ishtirokidagi kuzatuv va so'rovnomalarga asoslangan. Adolat tamoyiliga amal qilgan o'qituvchilar sinfda ijobiy, ochiq va ishonchli muhit yaratgan. Talabalar o'z fikrlarini erkin bildirgan, savollarda faol qatnashgan va topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashgan.

⁴ Nasriddinov, A., Jo'rayev, B. Muhandislik grafikasi: didaktik yondashuvlar va amaliyotda qo'llanilishi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022, 45–46-betlar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Pedagog xodimlarning kasbiy etika kodeksi. (2021). - <https://www.uzedu.uz>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. -<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-oktabrdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 582-son qarori. - <https://lex.uz/docs/5824567>

1-жадвал. O'qituvchining adolatlilik darajasi va talabalar ishtiroki o'rtasidagi bog'liqlik

O'qituvchi guruhi	Darslarda o'rtacha talabalar ishtiroki (%)	Izoh
Adolatga asoslangan yondashuvdagi o'qituvchilar	85%	Baholashda xolislik, teng munosabat, talabni adolatli qo'yish
Adolatga asoslangan yondashuvdagi o'qituvchilar	60%	Subyektiv baholash, e'tiborsiz munosabat, noaniq talablar
Farq	+25%	Adolatli muhit ishtirokni oshiradi

Altruistik yondashuv talabaning ehtiyojlariga e'tibor qaratish, har bir shaxsga individual yondashuvni anglatadi. O'qituvchi o'z manfaatidan ko'ra talabalar muvaffaqiyatini ustun qo'yadi. Bu esa o'z navbatida, ta'limda insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligini ta'minlaydi

Ishonch – o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining ajralmas axloqiy mezonidir. U nafaqat pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi, balki talabalarni shaxsiy va kasbiy jihatdan kamol topishga yo'naltiradi. Shu bois, zamonaviy o'qituvchi ishonch asosida qurilgan munosabatlarni vositasida o'z pedagogik vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ishonchli munosabat – samarali o'quv muhitining asosi hisoblanadi. Ishonch mavjud bo'lgan sharoitda talabalar ochiq muloqotda bo'lishga moyil bo'ladi, bu esa ularning o'z fikrini ifoda etish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi¹.

Hamkorlik asosidagi ta'lim jarayoni o'quvchilarni faollikka, mas'uliyatga, qaror qabul qilishga jalb etadi. O'qituvchi va talaba o'zaro dialog asosida bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu metod zamonaviy ta'lim texnologiyalarida – masalan, loyiha asosida o'qitish, STEAM (STEAM - ta'lim texnologiyasi quyidagicha ma'no kasb etadi. S - Science (Fan), T - Technology (texnologiya), E - Engineering (Muhandislik), A - Art (San'at), M – Mathematics (Matematika)) yondashuvida keng qo'llanadi.

Xulosa va takliflar.

1. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasida axloqiy me'yorlar muhim o'rin egallaydi. Bu me'yorlar nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki yosh avlodni sog'lom ma'naviy muhitda tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, pedagoglar orasida axloqiy madaniyatni yuksaltirish – zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri

bo'lishi zarur. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi chuqur bilim, pedagogik mahorat va insoniy fazilatlarining uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Unda axloqiy me'yorlar muhim o'rin tutib, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik oldida pedagog obro'sini belgilovchi asosiy mezonidir.

2. Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida doimo axloqiy qadriyatlarga tayanib, o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim. Oliy o'quv yurtlarida pedagoglarni tayyorlash jarayonida axloqiy kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bu nafaqat o'qituvchining, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligiga xizmat qiladi.

3. O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda axloqiy me'yorlar – adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik – ajralmas tarkibiy qismlardir. Bu qadriyatlar o'qituvchining nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki uning kasbiy etikasini ham belgilaydi. Axloqiy me'yorlarga asoslangan pedagogik faoliyat samarali, insonparvar va barqaror ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining shakllanishida axloqiy me'yorlar – adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik – nafaqat axloqiy-psixologik omil sifatida, balki huquqiy va me'yoriy asosga ega kasbiy talab sifatida ham namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va strategik hujjatlari bu tamoyillarni pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Shu bois har bir zamonaviy o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlarga tayangan holda ishlashi nafaqat professional, balki huquqiy majburiyat hamdir.

5. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasida adolat, altruizm, ishonch va hamkorlik kabi axloqiy me'yorlar asosiy ustunlardan biridir. Bu me'yorlar o'qituvchining shaxsiy-professional obrazini mustahkamlaydi, o'quv jarayonini insonparvarlashtiradi va sifatini oshiradi. Shuningdek, talabalar shaxsiyatining rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. - <https://lex.uz/docs/-6786401>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentabrdagi ORQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - <https://lex.uz/acts/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. - <https://lex.uz/docs/-6786401>
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Pedagog xodimlarning kasbiy etika kodeksi. (2021). - <https://www.uzedu.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. -<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-oktabrdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 582-son qarori. - <https://lex.uz/docs/5824567>
6. Po'latova D.A. Axloqshunoslik: O'quv qo'llanma. - Toshkent: Primer Print, 2011.
7. Гусейнов А.А. Этика // Новая философская энциклопедия / Институт философии РАН. – Москва: Мысль, 2010.
8. Лаврентьева Н.Б., Нечаева А.В. Педагогическая этика. – Барнаул: Изд-во АлтГТУ, 2010.
9. Сухомлинський В.О. Як виховати справжню людину. Другий Том. – Київ: "Радянська школа", 1976, 670 с.
10. Чабанова С.С. Авторитет учителя: генезис педагогических подходов // Знание. Понимание. Умение, 2009. № 3, с. 37–39.
11. Шмырева Н.А., Ткачева О.Н. Основные направления воспитания в современной школе: учебно-методическое пособие. – Кемерово: Кемеровский государственный университет, 2013.
12. Яценко Т.С. Психологические основы активной подготовки будущего педагога к общению с учащимися. – Киев: 2009.
13. Xasanboyeva M. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: TDPU nashriyoti. 2020.
14. Abduqodirov A., Norqulov B. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba munosabatlari. - Andijon: FAN, 2021.
15. Jumayeva N. Ishonch va pedagogik etika masalalari // O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, 2019. № 4, 55–60-betlar.
16. Hamidov S. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
17. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati. – Toshkent: "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi" nashriyoti, 1994. – B.18.
18. Nasriddinov, A., Jo'rayev, B. Muhandislik grafikasi: didaktik yondashuvlar va amaliyotda qo'llanilishi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022, 45–46-betlar.
19. Xodjayev N. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
20. Hasanboyeva O. Pedagogik etika asoslari. - Toshkent: Fan. 2020.
21. Qodirov A. Ta'limda baholashning adolat tamoyillari. - Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
22. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – Москва: Академия, 2006.
23. UNESCO. (2019). Teacher Professionalism and Ethics: International Approaches. Paris.
24. Бодалев А.А. Основы психологии и педагогики. Москва: Просвещение, 2003.
25. <https://www.britannica.com/topic/altruism-ethics>